



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZONIM KOMPONENTLI XULQ-ATVOR KONSEPTI IFODALOVCHI PAREMIYALAR

Pulatova Muhayyo Azimboyevna

UrDU tayanch doktorant

muhayyo_pulatova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21511237>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli xulq-atvor konsepti ifodalovchi paremiyalar lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortiladi.


Kalit so'zlar: paremiya, zoonim, konsept, konseptual metofra, antroposentrik, kognitiv, lingvomadaniy.

Abstract: This article presents a linguocognitive and linguocultural analysis of paremias expressing behavioral concepts and containing zoonym components in English and Uzbek.

Keywords: paremia, zoonym, concept, conceptual metaphor, anthropocentric, cognitive, linguistic and cultural.

Lison kishilar ongidagi til xotirasida saqlanadigan umumiy lisoniy bilimlar tizimi bo'lib, mavhum hodisa sifatida bevosita aql orqali idrok etiladi. Bugungi kunda tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri, bilimi va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kognitiv fenomen sifatida o'rganish zarurati mavjud. Antroposentrik paradigma asosida shakllangan kognitiv tilshunoslik til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni, lisoniy birliklarning inson ongida hosil bo'lishi, qayta ishlanishi va qo'llanish mexanizmlarini tadqiq etadi. Ingliz va o'zbek tillari lisoniy manzarasida paremiyalar, ayniqsa, atoqli ot tarkibli paremiyalar ma'nosini to'g'ri talqin qilish ba'zan murakkablik tug'diradi. Bunday holatda paremiyalar tarkibida qatnashgan zoonimlar yoki boshqa turdagi atoqli otlarni antroposentrik tasnifi haqida ma'lumotga ega bo'lish, tafakkurda o'sha onomastik birlik bilan bog'liq konseptning shakllanish bosqichlari va taraqqiyotini aniqlash, paremiyaming tarkibi va umumiy semantikasi haqida bilimga ega bo'lish murakkab ijtimoiy-lisoniy jarayonni kengroq tasavvur qilish va anglashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zoonim (yun. Ewov – zoon – hayvon + onoma – atoqli ot) – zotli hayvonlarga (uy hayvoni, zoologik bog', sirk, qo'riqxonalaridagi, shaxsiy qarovdagi va sh.k) qo'yilgan maxsus laqab va nomlar [3; 32]. Ingliz va o'zbek tillaridagi zoonimlar leksik va semantik jihatdan tahlilga tortilgan ishlar yetarlicha ko'p uchraydi. Lekin, aynan zoonim komponentli paremiyalarning antroposentrik jihatlariga B. Jo'rayevaning "O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati" [10; 144], Z. Xolmonovanning [11; 186] G.





Valiyeva G, D. Muhammadiyevalarning “O‘zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi” monografiyalarida ham to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu maqolada zoonim komponentli paremiyalar paremiologik lug‘atlar va maqollar to‘plamlaridan yig‘ib olib tahlilga tortilgan va manbaalar havola shaklida ko‘rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur bobda ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli paremiyalar antroposentrik paradigma tamoyillari asosida kognitiv tilshunoslik metodologiyasi nuqtayi nazaridan konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida har ikki tildagi maqol va matallarning xalqning kognitiv tajribasi, milliy tafakkuri va madaniy xotirasining mahsuli ekani asoslanadi. Shuningdek, paremiyalar tarkibidagi turli onomastik birliklar muayyan konseptlarni ifodalashi, ularning milliy-madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba hamda etnomadaniy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Natijada, onomastik komponentli paremiyalarning konseptual mazmuni va ularning ingliz hamda o‘zbek xalqlarining lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o‘rni antroposentrik yondashuv asosida ochib beriladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilida zoonim komponentli paremiyalar o‘zbek tili bilan qiyoslanganda kam uchradi: “*BRAG is a good dog, but Holdfast is better*” [4; 31] paremiyasida *Brag* va *Holdfast* – it nomlari. Kognitiv jihatdan paremiyaning asosi it - inson xulqi konseptual metaforasidir. Bu yerda ikki zoonim ikki xulq qolipining ramziga aylangan. Maqol XVI asr Angliya xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. *Brag* (Maqtanish) – “maqtanish, katta gapirish yoki dadil da’vo qilish”ni ifodalovchi metaforik it. *Holdfast* – “qat’iyatlilik va aytganini bajarish”ni anglatuvchi yana bir metaforik it. Paremiya gapirish va amalda bajarish o‘rtasidagi farq kognitiv sxemasiga asoslangan. Bu “Lofchilik” mikrokonseptining eng nozik zoonimlashgan ifodasi.

O‘zbek paremiyalarida Boytevat, Marjongul, Bo‘ribosar kabi dabdabali it nomlari konseptual ziddiyat mexanizmi orqali ishlaydi: inson ongida nom va uning egasi o‘rtasida muvofiqliq bo‘lishi kerakligi haqida prototipik kutish mavjud, ammo bu kutish ataylab buziladi. “*Ichgani oshi yo‘q, itining oti “Boytevat”*” [5; 219], [6; 205], “*Boynikini Boytevat qizg‘anadi*” [7, 56], “*Boyning oshini Boytevat qizg‘anadi*” [7; 56] “*Boy o‘zidan Boytevat yomon*” [7; 56.] “*Itning oti – Boytevat*” [8; 147] paremiyalarida *Boytevat* – ramziy antroponim, ya’ni o‘zbek xalq tafakkurida baxillik, ko‘rolmaslik va ochko‘zlikning umumlashgan stereotipiga aylangan zoonim. Bu yerda hayvon nomi madaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi: *Boytevat* deyilishi bilanoq tinglovchi xarakterni taniydigan bo‘lib qolgan.

“*Yomon itning oti, Bo‘ribosar bo‘larmish*” [9; 66], “*Yomon itning oti, Bo‘ribosar bo‘lar emish*” [7; 95] paremiyalarida *Bo‘ribosar* – zoonim, it nomi.






Kognitiv sxema: Nom va mohiyat o'rtasidagi tafovut kognitiv sxemasiga soslanadi. Bu paremiya insonga nisbatan ishlatilganda "Nomuvofiqlik" mikrokonseptini ifodalaydi. Paremiya mohiyatiga ko'ra, it nomidan ko'ra kuchli ko'rinishga intiladi, lekin aslida bo'rini bosa olmaydi. Shuningdek, *"Uyida bir osh uni yo'q, itining oti – Marjongul"* [5; 234], *"Itning oti – Marjon, egasining oti Kaljon"* [7; 110] paremiyalarda nom va haqiqat o'rtasidagi ziddiyat orqali ko'z bo'yamachilik, soxta obro' va ijtimoiy niqob g'oyasini ixcham hamda ta'sirli tarzda ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Ikkala tilda ham zoonim shunchaki hayvon nomi emas, balki inson xarakteri yoki xulq-atvorining kodlashtirilgan ifodasidir. Brag va Holdfast qanday qilib "maqtanchoqlik" va "qat'iyat" konseptlarini timsollashtirsa, Bo'ribosar va Boytevat ham xuddi shunday "nomuvofiqlik" va "baxillik" mikrokonseptlarini timsollaydi. Bu ingliz kognitiv tilshunoslari Lakoff va Johnson konseptual metafora nazariyasidagi hayvonlarga inson xulq atvori ko'chishi sxemasining ikki tilda ham universal ishlashini ko'rsatadi. Ingliz namunasi bu ziddiyat gap bilan ish (so'z va amal) o'rtasida kechsa, o'zbek namunalarida (Boytevat, Bo'ribosar, Marjongul) ziddiyat nom bilan real xususiyat o'rtasida namoyon bo'ladi. Ikkala holatda ham paremiya semantik markazi "kutilgan norma – haqiqiy holat" nomuvofiqligiga qurilgan, ya'ni kognitiv jihatdan bir xil modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva N. E. Antropocentric branches of linguistics. Textbook. – Toshkent: Nurafshon business, 2023. – 472 b.
2. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Darslik. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 168 b.
3. Бегматов Е., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 105 б.
4. Speake J., Simpson J. Oxford Dictionary of Proverbs. Fifth edition. – N.Y.: Oxford University Press, 2008. – 625p.
5. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. O'zbek xalq maqollari. Toshent: "Sharq", 2019. - 512b.
6. Мирзаев. Т. Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. 2 томлик. Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти 1987. 368 б
7. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т., 1984. 289 б.
8. Шомақсудов Шотурсун, Шораҳмедов Шухрат. Маънолар махзани. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001. - 448 б.





9. Е. Сиддиқов. Қанотли сўзлар: Мақоллар, маталлар, hikmatli so'zlar. – Т.: Ёш гвардия, 1986.—256 б.
10. Jo'rayeva B. O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati. Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 144 b.
11. Xolmonova Z., Valiyeva G., Muhammadiyeva D. O'zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2022. – 186 b.

